

TALAFFUZIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KOREKSION ISHLAR MAZMUNI.

Jo'rayeva Go'zal Tirkash qizi

Jizzax shahar, 37-DMTT ingliz tili o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talaffuzida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan koreksion ishlar mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *artikulyatsion apparat, mehr-muhabbat tuyg'ulari, ta'lim tizimi, huquqiy savodxonlik, barkamol avlod, aqliy taraqqiyot, tafakkur quroli, muloqat vositasi, jahon miqyosida, ma'naviy meros.*

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita fanlarni puxta biladigan, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini namoyon eta olish hislatlarini maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan.

Maktabacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy va ruhiy tomondan to'g'ri rivojlanishi uning aqliy taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi. Bolaning har tomonlama shakllanishi xamda rivojlanishida nutqning to'liq rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Nutq tafakkur quroli va muloqat vositasi hisoblanadi Millat tafakkuri, ma'naviyati va madaniyatini ko'rsatib beruvchi jahon miqyosida tan olingan asosiy mezon bu tildir.

Avlodlar ajdodlari tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy merosni nutq orqali egallab, o'zlari uchun munosib tarzda hayot kechirish, takomillashtirib, kelgusi avlodlariga yetkazib borish imkoniga ega bo'ladilar. Shu sababli ham har qanday jamiyat, har qanday davlatda ta'lim-tarbiya oluvchilarning nutqiy tarbiyasiga alohida ahamiyat berib kelinadi. Quyida biz maktabgacha ta'lim yoshidagi nutqida deffekti bor bo'lgan bolalar bilan ish faoliyatini tashkil etuvchi didaktik o'yinlar bilan tanishib chiqamiz.

O'yinning borishi: Qopchaga sabzi, mushuk, shar, soat, soyabon, eshik, nasos, idish rasmlari solinadi. Bolalar 2 guruhga bo'linadilar. Defektolog bir tomonga sichqon rasmini, ikkinchi tomonga mushuk rasmini olib qo'yadi. Guruhlardagi bolalar bittadan navbatma-navbat chiqib, qolgan rasmni olib, unga qaysi tovush ishtirok etganiga qarab o'z joylariga turadilar, ya'ni "S" tovushi ishtirok etgan rasmni olsa, sichqon tomonga "sh" tovushi ishtirok etgan rasmni olsa, mushuk tomonga o'tadilar. Hamma olib bo'lgach, har bir bola o'z rasmini ko'rsatib nomini aytadi. Qolgan bolalar esa o'rtog'i joyini to'g'ri tanlay olganligi yoki yuqligini tekshirib boradilar. Logoped va defektolog esa bolalar "s"

va “sh” tovushlarini talaffuz etganlarida artikulyatsion apparat holati qanday bo‘lishini bolalarga tushuntiradi.

“Rasmlarni tanla” o‘yini

O‘yinning maqsadi: “S-Sh” tovushlarini bir-biridan farqlashga o‘rgatish. O‘yinning borishi: Nomida “S” va “Sh” tovushi bor bo‘lan rasmlar, so‘zlar tanlanadi. Logoped bolalarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruh bolalari “S” tovushi bor bo‘lgan rasmlarni tanlab oladi. Ikkinchi guruh bolalari esa “Sh” tovushi bor bo‘lgan rasmlarni tanlaydi. Defektologning stoli ustiga rasmlar o‘ng tomoni bilan tartibli qilib qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqib o‘zlariga taa’lluqli bo‘lgan tovush uchun rasm olib, joylariga o‘tiradilar. Bolalar rasm va predmetlarni tanlab olib bo‘lgandan so‘ng, har bir bola o‘rnidan turib, rasmlarning nomini aytadi. Rasmlarning nomini aytganda “S” yoki “Sh” tovushini boshqa tovushlardan ajratib aytishlari kerak. Qolgan bolalar rasmni nomini aytgan bola uni to‘g‘ri tanlaganmi yoki yo‘qmi kuzatib boradi. So‘ngra bolalarning o‘zlari shu tovushlar uchun so‘z o‘ylaydilar va aytadilar.

Defektolog “S” va “Sh” tovushlari bor bo‘lgan so‘zlarni aytadi, bolalar esa bu so‘zlarni takrorlaganlarida “S-Sh” tovushini to‘g‘ri talaffuz etishlari kerak. Masalan: Sochiq, shaftoli, moshina, gilos, sham, sholg‘om va boshqalar. Bolalar so‘zlarda S va Sh tovushini, boshqa tovushlarga nisbatan cho‘zibroq talaffuz etishlari S va Sh tovushi qayerda kelishini aniqlashlari lozim. Bolalarning S va Sh tovushlarini talaffuzidagi artikulyatsiyasi nazorat qilib boriladi.

“Top-chi, menda qaysi tovush ?” o‘yini

O‘yinning maqsadi: Z-J tovushlarini bir-biridan farqlashga o‘rgatish. O‘yinning borishi: O‘yin boshqaruvchisi tayinlanadi. Boshqaruvchi eshikdan tashqariga chiqib turadi, qolgan bolalar esa nomida J tovushi bor bo‘lgan so‘z o‘ylab topadilar. O‘yin boshqaruvchi qaytib kelib, har qaysi bolaning yoniga boradi, u kimning yoniga borsa, shu bola o‘ylagan so‘zni aytadi. Agarda boshqaruvchi aytilgan so‘zlarda J tovushini eshitsa, “j-j-j” deb, agar Z tovushini eshitsa, “z-z-z”, deb talaffuz etadi. Defektolog va bolalar boshlovchi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishini kuzatib boradilar. So‘ngra defektolog bolalarga rasmlar tarqatib chiqadi. Har bir bola navbatma-navbat chiqib, rasmni bolalarga ko‘rsatadi va uning nomini bildiruvchi so‘zda Z tovushi bo‘lsa, uni chivin rasmi tasvirlangan rasm polotnosi cho‘ntagiga solib qo‘yadi, agarda J tovushi bo‘lsa qo‘ng‘iz rasmi tasvirlangan rasm polotnosi cho‘ntagiga solib qo‘yadi. Mashg‘ulotning oxirida defektolog bolalarga bir necha so‘zlarni aytadi va uni takrorlashlarini taklif qiladi: jigar, zanjir, zebra, jazo, qo‘ng‘iz, g‘ijjak. Xar bir so‘z aniq va bo‘g‘inlarga bo‘lib talaffuz etilishi maqsadga muvofiq. **“Budilnik” o‘yini**

O‘yinning maqsadi: “R” tovushini nutqda xosil qilish. O‘yinning borishi: Logoped bolalarga stulchalarga o‘tirib olishlarini aytadi. Bitta bola logopedning yonida qoladi. Defektolog bolalarga murojaat etadi: Bolalar hammamiz tushlik qilib bo‘ldik. Endi hammamiz uxlaymiz. Hammamiz faqat budilnik jiringlaganda turamiz. Bolalar ko‘zlarini yumib o‘tiradilar. Bir necha vaqt o‘tgandan so‘ng defektologning ko‘rsatmasiga asosan budilnik rolini bajargan bola yurib budilnik ovoziga taqlid qiladi “dr-r-r” va bolalarni

uygʻotadi. Oʻyin shu tariqa davom etadi. Soʻngra bolalar oʻzaro rollarni almashadilar. Defektolog bolalarning r-r-r tovushini toʻgʻri talaffuz etishini kuzatib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi boʻlgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning koʻp asrlik tajribasini oʻzlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Bu oʻrinda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI.

1. Axmedova Z., Ayupova M., Xamidova M. Logopedik oʻyin. Toshkent-2013y.
2. M.Ayupova. Logopediya. Toshkent-2007y.
3. I.G. Veretennikova. Logopedicheskaya rabota s detmi doshkolnogo vozrosta. Toshkent – 1998y.
4. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Yu., Axmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik oʻyinlar. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007y.